O'zbekiston banklariga risklarni nazorat qilishning xalqaro amaliyotini qo'llashda birinchi o'rinda Bazel qo'mitasi tavsiyalari, xususan Bazel I, II va III standartlariga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Bazel standartlari banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kapitaliga bo'lgan talablar va likvidlik tizimini tartibga solishga yo'naltirilgan.

Mazkur maqolada bank nazoratining ahamiyati, uning asosiy vazifalari va O'zbekistondagi holati tahlil qilinadi.

MAVZSGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyaning N.P. Ogareva nomidagi Mordova davlat universiteti tadqiqotchisi A.V. Didikinning² "Banklarda risklarni boshqarishda xorijiy tajriba" mavzusida maqolasida turli mamlakatlarda ishlab chiqilgan tizimlar doirasida bank nazoratini amalga oshirish bo'yicha tartibga soluvchi organlarning o'ziga xos vakolatlari sezilarli darajada farq qilishini ta'kidlagan.

Jumladan, AQSh, Germaniya, Fransiya va Yaponiyada aralash tizimdagi nazorat ya'ni Markaziy bank tomonidan banklar nazorat qiladi. Masalan, Buyuk britaniya, Kanada va Shveysariyada Markaziy bank nazorat qiluvchi organ emasligi ta'kidlangan.

Amerikaning Kornell universiteti tadqiqotchisi Siji Chenning³ "Bank tizimida risklarni boshqarish" mavzusida maqolasida bank tizimi turli xil xatarlarga moyilligi, shuning uchun sektorda xatarlarni boshqarish juda muhimligi ta'kidlangan. Xatarlarni boshqarishda xavflarni aniqlash, tahlil qilish, baholash, monitoring qilish va hal qilishni o'z ichiga olishi qayd qilingan.

Jumladan, bank tizimi ko'plab operasion, kredit va bozor xatarlari bilan bog'liqligi va xatarlarni boshqarish jarayoni bank sektori va uning vositalari xavfsizligini ta'minlashi belgilangan.

Xalqaro valyuta jamg'armasining⁴ "Risk asosida bank nazorati" mavzusidagi maqolasida bugungi kunda, bir qator sabablarga ko'ra, risklarni boshqarish har qachongidan ham muhimligi qayd qilingan. Bank bozorlariga doimiy ravishda innovatsiyalar ta'sir ko'rsatayotganligi, texnologiyalardan foydalanishning ko'payishi, moliyaviy operatsiyalarning turlari, hajmi va tezligidagi kengayish sabab bo'layotganligi ta'kidlangan.

Shuni takidlash kerakki⁵ risklarni nazorat qilishda risk madaniyatining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Kuchli risk madaniyati risklar haqida ochiq va shaffof muloqotni rag'batlantiradi, potensial tahdidlarni zudlik bilan aniqlash va bartaraf etishni ta'minlaydi. Shunindan u risklarni tashkilot maqsadlari va qadriyatlariga mos ravishda boshqarishni ta'minlaydi, barqaror o'sishni va qiymat yaratishni rag'batlantiradi.

Shuningdek, banklar nafaqat boshqa banklar, balki moliya institutlarining o'sib borayotgan maydonida misli ko'rilmagan ichki va xalqaro raqobatga duch kelmoqda. Banklar doimiy o'zgarishlarning huquqiy muhiti bilan o'ralgan. Qisman ushbu omillarning ba'zilar tufayli banklar uchun mavjud bo'lgan xatarlarni boshqarish tizimlari ham yaxshilangan. Xatarlarni boshqarish nazariyasi va texnologiyadagi yutuqlar birgalikda banklarga xavfni yanada samarali aniqlash, o'lchash, nazorat qilish va nazorat qilish imkonini bergan. Texnologiya, shuningdek, tezroq aloqa va ma'lumotlarni uzatish imkonini berdi, bu esa xavflarni o'z vaqtida o'lchash imkonini berdi va shu bilan bank kompaniyasining global operatsiyalari bo'yicha xavflarni boshqarishni kuchaytirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki,⁶ moliyaviy bozorlarning globallasuvi nazorat organlarining o'zaro munosabati va xalqaro darajada axborot almashinuvi bo'yicha yangi vazifalarni yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan, bank nazorati sohasida boshqa moliyaviy bozorlarda bo'lgani kabi qator xalqaro standartlar ishlab chiqilishi va joriy qilinishi lozim.

2 Дыдыкин. А.В. Зарубежная практика управления банковскими рисками // Финансы и кредит. 9(441) – 2011. 75-80.

3 Siji Chen. Research on Risk Management in Banking System January 2023. Highlights in Business Economics and Management Volume 3 (2023) 3:267-275.

4 Mr. Robert C. Effros. Supervision by Risk. IMF eLibrary. 20 may 1998.

5 DSc D.A.Toshpulatov «Тижорат банкларида риск маданияти» Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, may

6 <https://www.norma.uz/uz/biznig-sharhlar/uzbekiston-tijorat-banklarida-bank-nazoratining-halqaro-standardlarini-qullash-amalieti>



Xalqaro bank nazoratida asosiy ikkita maqsadi mavjud bo'lib, kredit institutlari xususiy kapitali miqdori va sifatiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va bank tavakkalchiliklarini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha talablar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Banklarni tartibga solish va nazorat qilish jarayoniga aktiv ta'sir qiluvchi – xalqaro standartlarni joriy qiluvchi muhim tashkilot bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasidir.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi Bazel I (1988), Bazel II (2004) va Bazel III (2010) hujjatlari bilan mashhurdir.

“Bazel I” - 1988 yilda qabul qilingan bo'lib, uning asosiy g'oyasi bank kapitallari ustidan tartibga soluvchi nazorat tizimini yaratish orqali bank risklarini kamaytirish hamda yo'qotishlar darajasini kamaytirishdir.

“Bazel II” - bank kapitalining etarililigi baholashning yangi yondashuvlarini rivojlanishi natijasi o'laroq, 2004 yil 26 iyunda bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi yangilangan hujjati - Bazel II qabul qilindi.

“Bazel III” – dasturida jahonda ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va uni oqibatlarini bartaraf etish vaqtida barcha mamlakatlarda olib borayotgan banklar faoliyati barqarorligiga e'tibor berilgan.

Dunyoda rivojlangan 20 talik mamlakatlar vakillari o'rtasidagi yig'ilishlarda dunyoda ro'y bergan moliyaviy inqirozining kelib chiqish sabablari va uni oqibatlari, bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilgan. O'tgan yig'ilishlarda xalqaro moliya institutlari obro'sini yanada oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Bazel qo'mitasini bank tizimini barqarorligini ta'minlashdagi talablarini qayta ko'rib chiqish taklifi ma'qullangan.

Bank kapitali etariligi bo'yicha Bazel III talablaridan kelib chiqib, Regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti (K1) 13 foizdan kam bo'lmasligi, I darajali kapitalning monandlik koeffitsienti (K2) 10 foizdan kam bo'lmasligi, I darajali asosiy kapitalning monandlik koeffitsienti (K3) 8 foizdan kam bo'lmasligi va Leveraj koeffitsientining eng kichik darajasi (K4) 6 foizdan kam bo'lmasligi belgilangan.

Quyida oxirgi 3 yilda⁷ O'zbekiston bank tizimining o'rtacha kapitalning monandlik koeffitsientlari keltirilgan:

Ko'rsatkich	Me'yor	01.01.23	01.01.24	01.01.25
Regulyativ kapital	13%	17,8	17,5	17,4
1-darajali kapital	10%	14,5	14,1	14,3

Bank likvidililigiga nisbatan talablarda likvidlikni qoplash koeffitsienti (LCR) 100 foizdan kam bo'lmasligi, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (NSFR) 100 foizdan kam bo'lmasligi belgilangan.

Quyida oxirgi 3 yilda O'zbekiston bank tizimining likvidlik koeffitsientlari keltirilgan:

Ko'rsatkich	Me'yor	01.01.23	01.01.24	01.01.25
LCR (Likvidlikni qoplash me'yori)	100%	211,6	164,8	193,8
NSFR (Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti)	100%	115,6	111,8	115,3

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida” Farmonida⁸ bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020 - 2025-yillarda bank tizimini transformasiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformasiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy echimlarni izlash yo'llarini belgilash ko'zda tutilgan.

Shuningdek, jahon banki bilan hamkorlikda tijorat banklari faoliyati ustidan prudensial nazorat mexanizmlari va tartib-taomillarini ularning Bazel qo'mitasi tamoyillariga mos kelishi nuqtai nazaridan baholashdan o'tkazilishi belgilangan.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Jahon banki bilan birgalikda banklar faoliyatini prudensial nazorat qilish mexanizmlari va tartib-taomillarining Bazel qo'mitasi “Banklarni samarali nazorat qilishning asosiy tamoyillari”ga muvofiqligi baholandi.

Baholash natijalaridan kelib chiqib, Markaziy bank tomonidan banklarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi belgilab olindi. Jumladan,

- davlat ustunlik qilayotgan bank sektoridan xususiy investorlarning roli sezilarli bo'lgan sektorga bir tekis o'tishni ta'minlash, shuningdek, banklarga nisbatan xalqaro e'tirof etilgan minimal standartlar va talablarni

⁷ <https://cbu.uz/uz/oz/statistics/bankstats/2122807>.

⁸ <https://lex.uz/mact/-4811025>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизimini isloh қилиш стратегияси тўғрисида” 5992-сонли Фармони



belgilash uchun normativ va nazorat bazasini qayta ko'rib chiqish;

- kapitalning etariligi va likvidlik ko'rsatkichi talablariga qat'iy rioya etilishini, shu jumladan mavjud talablarni qayta ko'rib chiqish va ularni Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining standartlariga muvofiqlashtirish orqali ta'minlash;

- muammolarni barvaqt, xatarlar amalda ro'y berishidan oldin bartaraf etish maqsadida, jumladan banklarning o'zi tomonidan oldini oluvchi choralar ko'rilishini nazarda tutuvchi tezkor tuzatish harakatlarini (barvaqt javob qaytarish choralari) qo'llash mexanizmini ishlab chiqish;

- nazorat faoliyatiga jalb etilgan xodimlarning salohiyatini doimiy va tizimli ravishda oshirish;

- normativ-huquqiy hujjatlarni Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash;

- tizimli ahamiyatga molik banklar uchun kapital buferlarini joriy qilish orqali kredit portfelining haddan ziyod o'sib ketishini jilovlash;

- xalqaro amaliyotga muvofiq turli tavakkalchiliklarni (konsentrasiya va likvidlik xavfi, kredit, operasion, valyuta tavakkalchiligi va boshqalar) boshqarish bo'yicha qo'llanmalarni ishlab chiqish;

- kreditlashning yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolayotgan sharoitda, shuningdek, bank tizimini isloh qilish va xususilashtirishga tayyorlashda Markaziy bankning bank tizimi regulatori sifatidagi rolini oshirish orqali lozim darajadagi prudensial nazoratning bo'lishi moliya tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, moliyaviy sektorni isloh qilish doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki⁹ Jahon banki ekspertlarining texnik ko'magida innovation SupTech texnologiyalari va echimlari bilan o'zining nazorat tizimi imkoniyatlarini kengaytirish uchun ko'p bosqichli transformasiya dasturini boshladi.

SupTech ma'lumotlarni tezkor va yirik miqdorda qayta ishlash, jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish, asosiy risklarni tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlash orqali tartibga soluvchilarga ichki nazorat jarayonlarini moliyaviy sektorning raqamli transformasiyasiga mos keladigan tarzda optimallashtirish va qayta tashkil etish imkonini beruvchi texnologiyalar va echimlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba ko'rsatmoqdaki, SupTech ko'plab nazorat organlari uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish, nazorat funksiyalari xarajatlarini qisqartirish, qarorlar qabul qilish tizimini takomillashtirish, risklarni pasaytirish va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategik ustuvor yo'nalishga aylanmoqda.

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan SupTech echimlaridan foydalanilishi nazorat qilinadigan tashkilotlar faoliyatida nazorat yukini qisqartirish, ma'lumotlar taqdim etish jarayonlarini takomillashtirish, me'yoriy hujjatlarga amal qilinishida xarajatlarni qisqartirish kabi holatlarga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Uzoq muddatli istiqbolda SupTech yordamida transformasiyaning amalga oshirilishi moliya sohasidagi boshqa islohotlar bilan birgalikda Markaziy bankka inklyuzivlik, innovasiya, samaradorlik va barqaror iqtisodiy o'sishga asoslangan ishonchli moliyaviy tizimni rivojlantirish bo'yicha strategik maqsadlarga erishishda yordam beradi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz bank tizimini takomillashtirish va jahon standartlariga yaqinlashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bank risklarni boshqarish yo'nalishida olib borilayotgan ishlar ham shular jumlasidandir.

Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda tijorat banklari transformasiya qilish bo'yicha ishlar doirasida risklarni boshqarish tizimini tubdan isloh qilinib, Bazel qo'mitasi talablari asosida qayta tashkil etilmoqda. Bankda Risklarni boshqarish siyosatlarini, Risklarni boshqarish strategiyasi va Risk-appetiti yangidan ishlab chiqilib, Risklarni nazorat qiluvchi va boshqaruvchi qo'mitalar tashkil etilib, risk hisobotlari yangicha talqinda ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Likvidlilik, foiz, valyuta, kredit risklari bo'yicha stress-testlarning yangi modellari yaratildi, tasdiqlangan siyosatlardagi normalarni amaliyotga jalb qilish ishlari boshlandi.

Bugungi kun zamonaviy bank faoliyatida risklarni boshqarish muhim ahamiyat kasb etayotganligi, hamda risklarni boshqarish bo'yicha barcha rahbar xodimlar zaruriy bilim va tushunchalarga ega bo'lishlari zarurligini inobatga olgan holda, ko'plab banklarning risk menejment tizimida faoliyat ko'rsatgan, bank risklarini boshqarish bo'yicha katta amaliy tajriba ega mutaxassislar bilan butlandi.

Bank risklarni boshqarish tizimi, risk madaniyati, aktiv va passivlarni boshqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlilik, valyuta va foiz risklari, shuningdek kredit va operasion risklarini boshqarishning xalqaro andozalari joriy etilmoqda.

Bank sektorini isloh qilishning asosiy yo'nalishi sifatida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishga amal qilish muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish orqali bank tizimini



moliyaviy barqarorligini ta'minlash¹⁰ belgilanganligi banklarda risklarni boshqarishning xalqaro tajribalarini o'rganish xususan banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarga bardoshlilik darajalarini hisobga olgan holda risk ko'rsatkichlari limitlarini ishlab chiqish lozim.


Boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha tarkibiy tuzilma tomonidan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi, shu jumladan, risk-appetit va tavakkalchiliklarni boshqarish siyosatining ishlab chiqilishi, ularga rioya etilishi va ularning o'z vaqtida yangilab borilishi ustidan nazorat qilish¹¹ belgilanganligi banklarda risk-appetiti ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni boshqarish bo'yicha bank o'zining ichki me'yoriy hujjatlari ishlab chiqish lozim bo'ladi. Aynan risk appetitining to'g'ri aniqlanishi ko'pgina banklarga global moliyaviy beqarorlik davrida bankrotlikdan qochishga imkon beradi. Risk appetiti darajasini aniqlab, har bir bank risklarni boshqarish sohasida ishlashning o'ziga xos strategiyasini ishlab chiqadi.

Risk appetitini samarali boshqarish ham Regulyatorning majburiy me'yoriy talablarni buzish riskini kamaytiradi, ayniqsa banklarni tartibga solishning yangi standartiga o'tish sharoitida muhim hisoblanadi.

Bankda risklarni boshqarishning maqsadi qonunchilik talablariga, bank aksiyadorlari va investorlarning kutgan talablariga muvofiq, risklarni ongli ravishda qabul qilish va bank faoliyati davomida yuzaga keladigan risklarni bartaraf etish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish sifatida belgilanadi.

Bank bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bosqichlardan iborat risk-appetiti ko'rsatkichlarini aniqlash va muhokama qilish, risk profili ko'rsatkichlari, risklarini kamaytirish bo'yicha qarorlar qabul qilish tuzilmasi bo'yicha risk appetitini boshqarish tadbirlarini ketma-ket ravishda amalga oshiradi.

Bank risklarini boshqarish metodologiyasining joriy amaliyotini tahlil qilish va shu asosda respublika bank bozori uchun aniq takliflarni ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Risklarni boshqarish jarayonining elementlari, ularning barcha o'ziga xos xususiyatlariga qaramasdan, aniq belgilangan chegaralarga ega emas. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan va har biri nafaqat bo'ysunuvchi, balki boshqa elementga nisbatan ham bo'ysunadi.



Riskni aniqlash (identifikatsiya qilish) - bu risklarni aniqlash uchun ma'lumotlardan tizimli foydalanishdir. Tarixiy ma'lumotlar, nazariy tahlillar, xabardor fikrlar va manfaatdor tomonlarning xavotirlarini o'z ichiga olishi mumkin. Riskni aniqlash "Nima noto'g'ri bo'lishi mumkin?" degan savolga javob beradi. Riskni aniqlash (identifikatsiya qilish) riskni boshqarish jarayonidagi keyingi qadamlar uchun asos bo'ladi.

Risk aniqlangandan so'ng, risklarni boshqarish jarayonining keyingi bosqichi amalga oshiriladi - risk hajmini va miqdorini baholash kerak.

Riskni baholash - bu aniqlangan xavflar bilan bog'liq riskni hajmini va miqdorini o'lchashdir. Bu yuzaga kelish ehtimoli va zararining og'irligi bilan bog'liq bo'lgan sifat yoki miqdoriy jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda risklarni (potensial yo'qotishlarni) baholash tashqi va ichki inflyatsiya va uning tendensiyalarini prognoz qilish qiyinligi, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning beqarorligi tufayli qiyin.

Biroq, bu baholash muqarrar va quyidagilarni o'z ichiga oladi: risk turini aniqlash, uning paydo bo'lish ehtimoligini va pul ko'rinishdagi shartlarini aniqlash lozim.

Riskni baholash uchun turli usullar qo'llaniladi. Ulardan eng mashhurlari: individual baholash usuli, o'rtachalar usuli va foizlar usulidir.

Riskni nazorat qilish - bu riskni amalga oshirish jarayonida zarar miqdorini minimallashtirish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar hisoblanadi. Risklarni nazorat qilish risklarni kamaytirish va/yoki qabul qilish bo'yicha qarorlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. Risklarni nazorat qilishning maqsadi riskni maqbul darajaga kamaytirishdir.

Risklarni nazorat qilish harakatlarining ko'lamini riskning muhimligiga mutanosib bo'lishi kerak. Qaror qabul qiluvchilar risklarni nazorat qilishning optimal darajasini tushunish uchun turli jarayonlardan, jumladan, foyda-xarajat tahlilidan foydalanishlari mumkin. Risklarni nazorat qilish quyidagi masalalarga qaratilishi lozim:

Risk maqbul darajadan oshadimi?

Risklarni kamaytirish yoki bartaraf etish uchun nima qilish mumkin?

Foyda, risk va resurslar o'rtasidagi to'g'ri muvozanat qanday?

Aniqlangan risklarni nazorat qilish natijasida yangi risklar paydo bo'ladimi?

10 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизimini ислох қилиш стратегияси тўғрисида" ги ПФ-5992-сонли Фармони 2020 йил 12 январь.

11 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг "Тижорат банкларида корпоратив бошқарув тўғрисида" ги 3254 - сонли низом. 2020 йил 30 июнь.



Riskni pasaytirish, agar u belgilangan (qabul qilinadigan) darajadan oshib ketgan bo'lsa, uni kamaytirish yoki undan qochish jarayonlariga qaratilgan. Riskni kamaytirish zararning jiddiyligi va ehtimolini kamaytirish bo'yicha harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Risklarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish yangi xavflarni keltirib chiqarishi yoki boshqa mavjud risklarning muhimligini oshirishi mumkin.

Bank tomonidan risklarni nazorat qilish xarajatlari uch qismga bo'linadi:

- risklarni nazorat qilish va yo'qotishlarning oldini olish bilan bevosita bog'liq xarajatlar;
- har qanday sharoitda oldindan aytib bo'lmaydigan va oldini olish mumkin bo'lmagan muqarrar yo'qotishlar, shu jumladan riskni sinchkovlik bilan nazorat qilish choralari;
- risklarni nazorat qilish bilan bog'liq ma'muriy xarajatlar.

Nazorat samaradorligiga qaramay, oldini olish yoki kamaytirish mumkin bo'lmagan risklarni amalga oshirish holatlari mavjud. Bundan tashqari, ularni amalga oshirish ehtimolini kamaytirish xarajatlari nomaqbul bo'ladigan risklar mavjud, chunki ular mumkin bo'lgan zarardan oshadi. Shu munosabat bilan, boshqaruv jarayonining yakuniy bosqichi bo'lgan tavakkalchilikni moliyalashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda bank nazorati bank tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan nazorat choralari banklarning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini oshirishga qaratilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish esa nazorat tizimini yanada samarali va shaffof qiladi. Shuning uchun kelgusida bank nazoratini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank nazorati tizimini takomillashtirish borasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribani inobatga olgan holda quyidagi takliflar beriladi:

Bazel III standartlarini to'liq joriy qilish – Banklarning kapital etariligi va likvidlik talablarini kuchaytirish kerak.

Raqamli bank nazorati tizimini rivojlantirish – Texnologiyalar asosida banklar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish muhim.

Moliyaviy inqirozlarga qarshi xavfni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish – AQSh va Evropa tajribasidan kelib chiqib, bank tizimidagi xavflarni oldindan aniqlash va ularga qarshi chora ko'rish mexanizmlarini kuchaytirish.

Inspeksiya va monitoringni kuchaytirish – Banklarning ichki xavflarni boshqarish tizimini muntazam baholab borish, xalqaro amaliyotdagi so'nggi tendensiyalarni joriy etish.

Bankrotlikka qarshi tezkor reaksiya mexanizmlarini yaratish – Faoliyat ko'rsata olmaydigan banklar uchun samarali tugatish jarayonlarini ishlab chiqish.

Bank tizimi barqarorligini ta'minlashda bank nazorati va Markaziy bankning roli juda muhimdir. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, qat'iy va shaffof bank nazorati tizimi moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladi. O'zbekistonda Markaziy bank bank nazoratini xalqaro standartlar asosida kuchaytirishi zarur. Bazel III talablariga mos ravishda xavflarni baholash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli bank nazorati tizimini rivojlantirish va bank tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etish lozim.

Shu tariqa, Markaziy bank bank nazoratining samaradorligini oshirish orqali mamlakatda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Курбонов, А. Рахимовлар томонидан “Банк назорати ва таҳлили”. Дарслик – Тошкент.: 2022. 21 бет.
2. Дыдыкин. А.В. Зарубежная практика управления банковскими рисками // Финансы и кредит. 9(441) – 2011. 75-80.
3. Siji Chen. Research on Risk Management in Banking System January 2023. Highlights in Business Economics and Management Volume 3 (2023) 3:267-275.
4. Mr. Robert C. Effros. Supervision by Risk. IMF eLibrary. 20 may 1998.
5. DSc D.A.Toshpulatov “Тижорат банкларида риск маданияти” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, may.
6. <https://www.norma.uz/uz/bizning sharhlar/uzbekiston tijorat banklarida bank nazoratining xalqaro standartlarini qullash amaliyoti>
7. <https://cbu.uz/uz/oz/statistics/bankstats/2122807>.
8. <https://lex.uz/mact/-4811025>.
9. <https://cbu.uz/>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 январьдаги “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” ги ПФ-5992-сонли Фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг “Тижорат банкларида корпоратив бошқарув тўғрисида” ги 3254-сонли низом. 2020 йил 30 июнь.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>